

MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

№4

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

2026
APREL



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 - Texnika fanlari
08.00.00 - Iqtisodiyot fanlar



Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB™
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

OpenAIRE


ROAD

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

BASE

Crossref

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU



ISSN: 3060-463X

РЭУ.РФ
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛИАЛ



muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr, 2026-yil, aprel.

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afrovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalendar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

Yusupov Maxamadamin Abduxamidovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor

Kalonova Moxigul Baxritdinovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor.

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Norboyev Odil Abrayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Pardaev Umidjon Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Xolmirzayev Ulug'bek Abdulazizovich, Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc)

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellashtirish
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.08.06 – "G'ildirakli va gusenisali mashinalar va ularni ishlatish" (texnika fanlari)
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK
Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

STRATEGIC INTEGRATION OF BUSINESS PLANNING AND FORECASTING IN INDUSTRIAL ENTERPRISES.....	11
Sharipov K.A., Ismatullayev T.R.	
ВКЛАД БАНКОВСКОЙ СИСТЕМЫ В СОЦИАЛЬНО-ЭКОНОМИЧЕСКОЕ РАЗВИТИЕ МАХАЛЛЕЙ РЕСПУБЛИКИ КАРАКАЛПАКСТАН: МЕХАНИЗМЫ, ДИНАМИКА И СТРАТЕГИЧЕСКИЕ ОРИЕНТИРЫ	21
Бабаназарова Гульзар Зиуатдиновна	
BUDJET TASHKILOTLARIDA XARAJATLARNI REJALASHTIRISH VA MOLIYAVIY NAZORATNI TASHKIL ETISH.....	27
Karayev Payzillaxon Yusufxonovich	
FERMER XO'JALIKLARINI MOLIYAVIY QO'LLAB-QUVVATLASHDA SUBSIDIYA AMALIYOTINI TAKOMILLASHTIRISH.....	32
Xakimov Zafar Ibragimovich	
IQTISODIY O'SISHGA ERISHISHDA DAVLAT INNOVATSION VA INVESTITSION SIYOSATINING O'RNI	38
Xaydarova Yorqinoy Asqar qizi	
QURILISH SANOATIDA KORXONALARNI MOLIYALASHTIRISHNING NAZARIY KONSEPSIYALARI VA ZAMONAVIY YONDASHUVLARI.....	44
Igitov Jurabek Kuzibekovich	
ОСОБЕННОСТИ ВЫБОРА СТРАТЕГИИ РАЗВИТИЯ ПРЕДПРИЯТИЙ МЕТАЛЛУРГИЧЕСКОГО КОМПЛЕКСА	50
Абдуллаева Матлуба Нематовна, Акбарова Муфаррах Мухитдиновна	
СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ СИСТЕМЫ КОМПАЕНС-КОНТРОЛЯ В КОМПАНИЯХ С ГОСУДАРСТВЕННЫМ УЧАСТИЕМ В УЗБЕКИСТАНЕ	56
Халтурдиев Айтмурат Маратович	
O'ZBEKISTONDA RAQAMLI IQTISODIYOTNING ICHKI BELGILARI	64
Saatova Lolaxon Ergashevna	
INNOVATSION YONDASHUVLAR ASOSIDA OZIQ-OVQAT KORXONALARIDA RAQOBATBARDOSHLIKNI OSHIRISH MEKANIZMLARI	71
Pulatov Abdullo	
MAJBURIY IJRO ETISH CHORALARINI TAKOMILLASHTIRISH: MILLIY VA XORIJIY TAJRIBA.....	76
Axmedov Zafarjon Zokirjon	
МОДЕЛЬ ИНТЕГРИРОВАННОЙ СИСТЕМЫ ESG-ТРАНСФОРМАЦИИ И ЭКОНОМИЧЕСКИЕ МЕХАНИЗМЫ ЕЁ РЕАЛИЗАЦИИ НА ПРЕДПРИЯТИИ ПО ПРОИЗВОДСТВУ ПОЛИМЕРНОЙ УПАКОВКИ	80
Ташпулатов Дильмурад Рустамович	
KORPORATIV KORXONALARDA KAPITALNI BUDJETLASHTIRISH JARAYONINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI.....	85
Latipova Shaxnoza Maxmudovna	
INNOVATSION MENEJMENTDA KOMMUNIKATSIYA VA TASHKILY MOSLASHUVCHANLIKNING ROLI: O'ZBEKISTON SHAROITI MISOLIDA	92
Atamatov Abdusalil Salomovich	
QAYTA TIKLANUVCHI ENERGIYA MANBALARINING AHAMIYATI VA UNING SALOHİYATINI BELGILOVCHI OMILLAR	97
Qodirov Baxodir Tursunovich, To'rayev Qaxramon Zokirjonovich	



NAMANGAN VILOYATIDA AYOLLAR TADBIRKORLIK FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHDA TADBIRKORLIK MUHITINI BAHOLASH	103
Raximova Moxigul Isroiljonovna	
O'ZBEKISTON IQTISODIYOTIGA TO'G'RIDAN-TO'G'RI XORIJIY INVESTITSİYALARNI JALB ETISH BILAN BOG'LIQ MUAMMOLAR VA ULARNI BARTARAF ETISH YO'LLARI	107
Davitova Shaxzoda Doniyor qizi	
ANALYSIS OF THE FORMATION OF MARKET DEMAND AND THE ESTABLISHMENT OF EQUILIBRIUM IN A MARKET ECONOMY	112
Kamilova Nargiza	
BO'LAJAK FIZIKA O'QITUVCHILARINI NANOTEXNOLOGIYA SOHASIDAGI BILIMLARNI TAQDIM ETISHGA VA O'QITISHGA TAYYORLASH METODIKASI	115
Sottarov Abdulvali Umirqulovich	
INTEGRATING AI INTO STRATEGIC MANAGEMENT IN HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS	120
Uktamova Durdona Bakhtiyor qizi, Sultonali Umaraliyevich Mekhmonov	
BARQAROR RIVOJLANISH SHAROITIDA IJTIMOYIY HISOBOTLAR VA ULARNING AHAMIYATI	130
Sayfullayev Mexroj Sayfullayevich	
SANOAT KLASTERINING IQTISODIY SAMARADORLIGINI BAHOLASHNING USLUBIY JIHATLARI.....	135
Satvoldiyev Ulugbek Kamilovich	
RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA TIJORAT BANKLARI LIKVIDLIGINI BOSHQARISHNI TAKOMILLASHTIRISHNING INNOVATSION YONDASHUVLARI	140
Yangiboev Rustam Berdiyrovich	
MINTAQA IQTISODIY O'SISH DRAYVERLARINI RIVOJLANTIRISHDA MOLIYAVIY XAVFLARNI BOSHQARISH MEKANIZMLARI.....	145
Turopova Nigora Xolmurod qizi	
ЭКОЛОГИЯ ТУРИСТА КАК МЕТОД СОЗДАНИЯ КОМФОРТНОЙ И УСТОЙЧИВОЙ СРЕДЫ ДЛЯ ПУТЕШЕСТВЕННИКОВ.....	149
Наурызбаев Алиакбар Рустамович	
BINO VA INSHOOTLARNI BARPO ETISHDA PREFABRIKATSIYALASHGAN HAMDA MODULLI QURILISH TIZIMLARINI AQLLI BOSHQARUV ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH	152
Solijonov Javoxirmirzo Obidjon o'g'li	
RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA AKSIYADORLIK TIJORAT BANKLARIDA KORPORATIV BOSHQARUVNI XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH	163
Saidaxmedova Aida Mirzayevna	
O'ZBEKISTONDA KO'CHAT YETISHTIRISHNING HOZIRGI HOLATI VA RIVOJLANISH TENDENSIYALARI.....	169
Abdulfarmonov Farrux Faxriddinovich	
O'ZBEKISTONDA EKSPORTGA YO'NALTIRILGAN QISHLOQ XO'JALIGI MAHSULOTLARI SIFATI VA XALQARO STANDARTLARGA MUVOFIQLIGI TAHLILI	174
Safarova Muxabbat Radjabovna	
TIJORAT BANKLARI DEPOZIT SIYOSATI VA DEPOZIT BAZASI DINAMIKASINING BANK LIKVIDLIGIGA TA'SIRI	178
Sulaymanov Samandarboy Adhambek o'g'li	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA ISLOMIY MOLIYANING BANK TIZIMIGA INTEGRATSIYASI: MUAMMOLAR, IMKONIYATLAR VA TRANSFORMATSIYA YO'NALISHLARI	186
Adilov Zuxriddin Marip o'g'li	
SAMARQAND VILOYATI SANOATINING HUDUDIY TARKIBINI TAKOMILLASHTIRISHNING AYRIM MASALALARI.....	190
Uralov Eliboy Omonovich	



DIVERSIFIKATSIYALASHUV ASOSIDA QURILISH TARMOG' I RIVOJLANISHINI KO'P OMILLI BOG'LANISHLAR ASOSIDA MODELLASHTIRISH.....	194
<i>Yembergenova Aynur Aydosbaevna</i>	
ЩЕБЕНОЧНО-МАСТИЧНЫЙ АСФАЛЬТОБЕТОН В КИТАЕ: СОСТАВ, СВОЙСТВА, ИННОВАЦИИ И ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ.....	201
<i>Карабаев Абдужаббор Мелиевич, Занг Хайфей</i>	
TADBIRKORLIK FAOLIYATIDA SUBYEKTIV RISKNI SHAKLLANTIRUVCHI KOGNITIV OMILLAR VA ULARNI BOSHQARISH MEKANIZMLARI	205
<i>Abduxamid Abdumalikovich Bektemirov</i>	
HOMILADOR AYOLLAR UCHUN MAXSUS KIYIMLARNI LOYIHALASHDA ISTE'MOLCHILAR TALABLARINI O'RGANISH	211
<i>D.Sattarova, U.Vakhidova, D.Madiyarovna</i>	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA AHOLI DAROMADLARIGA TA'SIR ETUVCHI STATISTIK INDIKATORLAR TIZIMINING METODOLOGIK ASOSLARI VA ULARNING TAHLILY IMKONIYATLARI	217
<i>Atayev Jaxongir Erkinovich</i>	
KICHIK BIZNES INVESTITSION KREDITLARINI TIJORAT BANKLARI TOMONIDAN MOLIYALASHTIRISH.....	221
<i>M.O.Yuldoshova</i>	
HUDUDNING "YASHIL IQTISODIYOT" ASOSIDA RIVOJLANISHINI TADQIQ ETISH: KO'RSATKICHLAR TIZIMI VA BAHOLASH USULLARI	226
<i>Shomirzayev Abdug'affor Abdujabbor o'g'li</i>	
O'ZBEKISTONDA SUV XO'JALIGI TIZIMIDAGI QAYTA TIKLANUVCHI HAVZALAR	231
<i>To'rayev Rasul Nortojiyevich, Seytov Aybek Jumabayevich, Uteuliyev Niyatbay Uteuliyevich, Haydarova Roziya Davronovna</i>	
KORXONALAR IQTISODIY BARQARORLIGINING NAZARIY MODELLARI VA SINERGETIK YONDASHUV ASOSIDA BAHOLASH MEKANIZMLARI	236
<i>Iminova Nargizaxon Akramovna</i>	
TIJORAT BANKLARINING INVESTITSIYA SIYOSATI VA QIMMATLI QOG'OZLAR PORTFELINI BOSHQARISH STRATEGIYALARI	241
<i>Abduvaliyev Sanjar Abdurahmonovich</i>	
PAHTA VA MEVA-SABZAVOT YETISHTIRUVCHI FERMERLARDA TAVAKKALCHILIK XULQ-ATVORINING QIYOSIY TAHLILI: ISTIQBOL NAZARIYASI ASOSIDA.....	249
<i>Tadjiyev Abdusame Abduhamidovich</i>	
ФОРМИРОВАНИЕ МАРКЕТИНГОВОЙ СТРАТЕГИИ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ ОРГАНИЗАЦИИ В СОВРЕМЕННЫХ УСЛОВИЯХ.....	253
<i>Алиев Абдулазиз Исмаилович, Кахрамонова Азиза Шухрат кизи</i>	
QQS TIZIMI SAMARADORLIGINI XALQARO INDIKATORLAR ASOSIDA BAHOLASH	259
<i>Eshkarayev Bobir Chariyevich</i>	
QISHLOQ XO'JALIGIDA OZIYQ-OVQAT XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHNING INNOVATSION USULLARI	265
<i>Tadjimirzayev Anvar Abduvoxiidovich, Batirova Raxima Abdujabborovna</i>	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI TIJORAT BANKLARIDA KREDIT RISKINI BOSHQARISH MEKANIZMINING AMALIY TAHLILLARI.....	273
<i>Hamroyev Sherzod Axtamovich</i>	
ПРОГНОЗИРОВАНИЕ ПОТРЕБИТЕЛЬСКОГО СПРОСА С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ МЕТОДОВ МАШИННОГО ОБУЧЕНИЯ В РОЗНИЧНОЙ ТОРГОВЛЕ УЗБЕКИСТАНА.....	280
<i>Тен Марина Владимировна</i>	
O'ZBEKISTON SANOATIDA MAHALLIYLASHTIRISH DASTURLARINING IMPORT O'RNINI BOSISHDAGI SAMARADORLIGI TAHLILI	287
<i>Sobitova Ra'no Solidjonovna</i>	



NEFT-GAZ LOYIHALARIDA DAVLAT VA INVESTOR MANFAATLARINI MUVOFIQLASHTIRISHNING FISKAL-BOJXONA MEXANIZMLARI.....	290
Mansurov Obid Zaynidinovich	
QURILISH KORXONALARI FAOLIYAT SAMARADORLIGINI BAHOLASH INSTRUMENTLARI	296
Yahyoyev To'liqin Ismatulla o'g'li	
QASHQADARYO VILOYATIDA TURIZMNI RIVOJLANTIRISHDA TRANSPORT INFRATUZILMASINING TA'SIRI.....	300
Jahongir Ruziboyevich Qosimov, Narzullayeva Charos	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI TIJORAT BANKLARIDA KREDIT PORTFELINING SEKTORLAR KESIMIDAGI RISKLARI VA ULARNI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI.....	306
Norova Nozima Nabiyeвна	
AVTOMOBIL SANOATI KORXONALARIDA BREND STRATEGIYASINI BOSHQARISHNING ZAMONAVIY MODELLARI.....	312
Boboyev L Kadruxja Djuraxodjayeвich	
HUDDUD EKSPORT SALOHİYATINI STATISTIK TADQIQ ETISHDA RCA INDEKSIDAN FOYDALANISH.....	318
Xurramov Ramazon Allayor o'g'li	
СОВРЕМЕННЫЕ КОНЦЕПЦИИ И ТЕНДЕНЦИИ РАЗВИТИЯ УПРАВЛЕНИЯ СТРАТЕГИЕЙ БРЕНДОВ В АВТОМОБИЛЬНОЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ	325
Бобоев Л Кадрухжа Джураходжаевич	
HUDDUDLARDA UY-JOY QURILISHI JARAYONINI TASHKIL ETISHNING QONUNIYATLARI VA TAMOIYILLARI.....	331
Usmanov Mirumar Abdulla o'g'li	
OYNALI FASAD TIZIMLARINI MONTAJ QILISHNING ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARI	339
Inamov Boxodir Nizamovich, Ozodxo'jayev G'aybulla Sherzodxo'ja o'g'li	
KLASSIK SHIFRLASH ALGORITMLARINING XUSUSIYATLARINI NEYRON TARMOQ ORQALI O'RGANISH.....	344
Davlatov Mirzo-Ulug'bek Bobir o'g'li, Allanov Orif Menglimuratovich, Turdibekov Baxtiyor Baxodir o'gli	
АЛГОРИТМ АДАПТАЦИИ ПАРАМЕТРОВ СИСТЕМ ИДЕНТИФИКАЦИИ ДИНАМИЧЕСКИХ ОБЪЕКТОВ.....	350
Сидиков Исамиддин Хакимович, Алимова Гулчехра Рахимжоновна, Ибрагимов Беғовот Шералиевич	
ELEKTRON HUKUMATNING BARQAROR RIVOJLANISHI: QOZOG'ISTON VA O'ZBEKISTON TAJRIBASINING QIYOSIY TAHLILI.....	355
Umarova Durdona Abdumannabovna	
UY-JOY FONDI BOSHQARUVINING TASHKILY-IQTISODIY MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	360
Aminova Naima Umar qizi	
RAQAMLI IQTISODIYOT RIVOJI VA UNI TARTIBGA SOLISHDA MUVOZANATLI REGULYATIV SIYOSAT YURITISH.....	365
Davlatov Ulug'bek Baxodirovich	
HUDDUDIY SANOAT ISHLAB CHIQRISHNI INNOVATSION RIVOJLANTIRISH TENDENSIYALARI	370
Avliyaqulov Xudoyberdi	
O'ZBEKISTONDA AHOLINI UY-JOY BILAN TA'MINLASH DASTURLARIDA MAVJUD MUAMMOLAR.....	374
Xannarov Komiljon Karimovich	
DAVLAT FUQAROLIK XIZMATINING JOZIBADORLIGINI OSHIRISH VA DAVLAT FUQAROLIK XIZMATCHILARINI MOTIVATSİYALASHGA OID TEXNOLOGIYALAR.....	380
Bekmurodov Navruz Ergashevich	



FORECASTING AND PROMISING DIRECTIONS OF INNOVATIVE INDUSTRIAL AND INVESTMENT DEVELOPMENT IN THE KASHKADARYA REGION.....	393
Sattorov Shohruh	
ПОВЫШЕНИЕ ЭФФЕКТИВНОСТИ ИСПЫТАТЕЛЬНЫХ ЛАБОРАТОРИЙ НА ОСНОВЕ РАСШИРЕННОЙ РИСК-ОРИЕНТИРОВАННОЙ МОДЕЛИ С ВЕСОВЫМИ КОЭФФИЦИЕНТАМИ.....	400
Загидуллина Карина Рафаиловна	
РОЛЬ ФИНАНСОВОЙ ГРАМОТНОСТИ В РАЗВИТИИ ЖЕНСКОГО ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВА.....	405
Viktoriya Kan	
HUDUDLARDA SANOAT MAHSULOTLARI ISHLAB CHIQRISH JARAYONLARINI STATISTIK BAHOLASH.....	410
Nizomov Maxmud Minvarovich	
ЭФФЕКТИВНОСТЬ И ПРАКТИЧЕСКОЕ ЗНАЧЕНИЕ МЕТОДОЛОГИИ SWOT-АНАЛИЗА ПРИ ФОРМИРОВАНИИ КОРПОРАТИВНОЙ СТРАТЕГИИ.....	414
Махмудов Суннатжон Абдужаббор ўғли	
QURILISH MATERIALLARI SANOATI KORXONALARI BOSHQARUVI STRATEGIYALARINI SAMARALI TASHKIL ETISH.....	419
Ubaydullayev Muhammadjon Abdusamad o'g'li	
TRANSFORMATSION YETAKCHILIK VA XODIMLARNING INNOVATSION XULQ-ATVORI: KORPORATIV TASHKILOTLARDA EMPIRIK TADQIQOT.....	423
Alimov Bobirjon	
EKSPORTBOP QISHLOQ XO'JALIGI MAHSULOTLARI QIYMAT ZANJIRIDA LOGISTIKA XARAJATLARINI OPTIMALLASHTIRISHNING IQTISODIY MEKANIZMLARI.....	432
Toxirov Shodibek Jo'ra o'g'li, G.M.Abdulxayeva	
ELEKTRON SAVDODA YASHIRIN IQTISODIY FAOLIYATNI QISQARTIRISHDA MOLIVAVIY NAZORAT MEKANIZMLARINI RIVOJLANTIRISH.....	437
Iskandarova Munisa Hasan qizi	
MAMLAKAT INNOVATSION FAOLLIGIGA TA'SIR ETUVCHI ASOSIY OMILLARNING NAZARIY VA USLUBIY TAHLILI.....	441
Azimov Bobir Fattohevich	
O'ZBEKISTON MAHALLIY BYUDJETLARINING O'ZIGA XOSLIGI VA UNING DAROMAD MANBALARINI KUCHAYTIRISH MEKANIZMINING ROLINI OSHIRISH MASALALARI.....	445
Safarmurodova Marjona To'raqulovna	
DAVLAT OLIY TA'LIM MUASSALARIDA MOLIVAVIY MUSTAQILLIK SHAROITIDA RAQOBATBARDOSHLIKNI TA'MINLASH VOSITALARI.....	450
Adizov Bobir Baxtiyorovich	
SIRKULAR IQTISODIYOT SOHASIDA ILG'OR XORIJIY TAJRIBALAR VA ULARNI O'ZBEKISTON SHAROITIDA QO'LLASH IMKONIYATLARI.....	457
Narzullayev Elmurod Shuxrat o'g'li	



UO'K: 33.330.15

SIRKULAR IQTISODIYOT SOHASIDA ILG'OR XORIJIY TAJRIBALAR VA ULARNI O'ZBEKISTON SHAROITIDA QO'LLASH IMKONIYATLARI

Narzullayev Elmurod Shuxrat o'g'li

University of Business and Science
Moliya kafedrasi dotsent v.b., i.f.f.d. (PhD)
OCID: 0009-0008-7679-1976
Email:narzullaeevelmurod2@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada sirkulyar iqtisodiyot konsepsiyasining nazariy asoslari hamda rivojlangan davlatlarda ushbu modelni joriy etish bo'yicha ilg'or xorijiy tajribalar tahlil qilingan. Tadqiqot jarayonida Yevropa Ittifoqi, Yaponiya, Janubiy Koreya va boshqa mamlakatlarda resurslardan samarali foydalanish, chiqindilarni kamaytirish va qayta ishlash tizimlarining amaliy natijalari o'rganildi. Shuningdek, sirkulyar iqtisodiyot tamoyillarini O'zbekiston sharoitida qo'llash imkoniyatlari, mavjud institutsional, iqtisodiy va texnologik omillar asosida baholandi. Tadqiqot natijasida milliy iqtisodiyotda resurs samaradorligini oshirish, ekologik barqarorlikni ta'minlash hamda chiqindilarni boshqarish tizimini takomillashtirish bo'yicha ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqildi.

Kalit so'zlar: sirkulyar iqtisodiyot, barqaror rivojlanish, chiqindilarni boshqarish, qayta ishlash, resurs samaradorligi, yashil iqtisodiyot, xorijiy tajriba, ekologik barqarorlik.

Abstract. This article examines the theoretical foundations of the circular economy and analyzes advanced international practices of its implementation in developed countries. The study explores practical outcomes related to efficient resource utilization, waste reduction, and recycling systems development in the European Union, Japan, South Korea, and other countries. Furthermore, the possibilities of applying circular economy principles under the conditions of Uzbekistan are assessed considering institutional, economic, and technological factors. Based on the research findings, scientific and practical recommendations are proposed to improve resource efficiency, ensure environmental sustainability, and enhance waste management systems.

Keywords: circular economy, sustainable development, waste management, recycling, resource efficiency, green economy, international experience, environmental sustainability.

Аннотация. В данной статье рассматриваются теоретические основы циркулярной экономики и анализируется передовой зарубежный опыт внедрения данной модели в развитых странах. В ходе исследования изучены практические результаты эффективного использования ресурсов, сокращения отходов и развития систем переработки в странах Европейского союза, Японии, Южной Кореи и других государствах. Также оценены возможности применения принципов циркулярной экономики в условиях Узбекистана с учетом институциональных, экономических и технологических факторов. По результатам исследования разработаны научно-практические рекомендации по повышению ресурсной эффективности, обеспечению экологической устойчивости и совершенствованию системы управления отходами.

Ключевые слова: циркулярная экономика, устойчивое развитие, управление отходами, переработка отходов, ресурсная эффективность, зелёная экономика, зарубежный опыт, экологическая устойчивость.

KIRISH

Bugungi kunda jahonda iqtisodiy rivojlanishning an'anaviy "ishlab chiqarish–iste'mol–yo'q qilish" modelidan voz kechib, resurslardan samarali foydalanishga asoslangan sirkulyar iqtisodiyot modeliga o'tish dolzarb masalalardan biriga aylanmoqda. Aholi sonining ortishi, tabiiy resurslarning cheklanganligi, chiqindilar hajmining keskin ko'payishi hamda ekologik muammolarning chuqurlashuvi iqtisodiyotni yangi tamoyillar asosida rivojlantirish zaruratini yuzaga keltirmoqda. Shu jihatdan sirkulyar iqtisodiyot iqtisodiy o'sish, ekologik barqarorlik va ijtimoiy farovonlikni uyg'unlashtiruvchi innovatsion rivojlanish modeli sifatida e'tirof etilmoqda.

Rivojlangan davlatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, resurslardan qayta foydalanish, chiqindilarni minimallashtirish, qayta ishlash sanoatini rivojlantirish va yopiq ishlab chiqarish siklini joriy etish orqali iqtisodiy samaradorlikni oshirish bilan bir qatorda atrof-muhitga salbiy ta'sirni kamaytirish mumkin. Yevropa Ittifoqi davlatlari, Yaponiya, Janubiy Koreya va boshqa ilg'or mamlakatlarda sirkulyar iqtisodiyot tamoyillari davlat siyosatining ustuvor yo'nalishiga aylangan bo'lib, ushbu tajribalar barqaror iqtisodiy rivojlanishning samarali mexanizmlarini shakllantirishga xizmat qilmoqda. O'zbekiston sharoitida ham iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish, resurslardan oqilona foydalanish, chiqindilarni boshqarish tizimini modernizatsiya qilish hamda ekologik xavfsizlikni ta'minlash masalalari ustuvor vazifalar qatoridan o'rin olgan. Shu bois xorijiy tajribalarni chuqur o'rganish va ularni milliy iqtisodiyot xususiyatlari, institutsional muhit hamda mavjud iqtisodiy imkoniyatlar asosida moslashtirish muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi. Mazkur maqolaning maqsadi sirkulyar iqtisodiyot sohasidagi ilg'or xorijiy tajribalarni tahlil qilish hamda ularni O'zbekiston sharoitida qo'llash imkoniyatlarini aniqlashdan iborat. Tadqiqot doirasida rivojlangan mamlakatlar amaliyoti o'rganilib, milliy iqtisodiyotda sirkulyar iqtisodiyot tamoyillarini joriy etishning ustuvor yo'nalishlari va istiqbollari asoslab beriladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

So'nggi yillarda sirkulyar iqtisodiyot konsepsiyasi barqaror rivojlanishning muhim yo'nalishlaridan biri sifatida xalqaro miqyosda keng tadqiq etilmoqda. Mazkur konsepsiya resurslardan samarali foydalanish, chiqindilar hajmini kamaytirish hamda iqtisodiy o'sish va ekologik barqarorlik o'rtasida muvozanatni ta'minlashga qaratilgan [2].

Xorijiy ilmiy adabiyotlarda sirkulyar iqtisodiyot tushunchasining nazariy asoslari va amaliy mexanizmlari chuqur o'rganilgan. Jumladan, Yevropa olimlari tomonidan ishlab chiqilgan tadqiqotlarda ishlab chiqarish va iste'mol tizimini yopiq sikl tamoyiliga o'tkazish iqtisodiy samaradorlikni oshirishning muhim omili sifatida baholanadi. Tadqiqotchilar resurslarni qayta ishlash, mahsulot hayotiy siklini uzaytirish va chiqindilarni iqtisodiy resursga aylantirishni sirkulyar modelning asosiy elementlari sifatida ko'rsatadi.

Xalqaro tashkilotlar tomonidan e'lon qilingan hisobotlarda sirkulyar iqtisodiyotning makroiqtisodiy ta'siri keng yoritilgan. Ushbu tadqiqotlarda qayta ishlash sanoatini rivojlantirish, yashil texnologiyalarni joriy etish va innovatsion biznes modellarni qo'llash orqali yangi ish o'rinlari yaratilishi hamda ekologik bosim kamayishi ta'kidlanadi. Ayniqsa, Yevropa Ittifoqi davlatlari tajribasi sirkulyar iqtisodiyot siyosatini davlat strategiyasi darajasida amalga oshirishning samarali natijalarini namoyon etadi. Osiyo mamlakatlari, xususan, Yaponiya, Janubiy Koreya va Xitoy tajribasi sanoat simbiozi, resurs samaradorligi va chiqindilarni boshqarish tizimlarini modernizatsiya qilish orqali sirkulyar iqtisodiyotni rivojlantirish mumkinligini ko'rsatadi [3]. Ushbu mamlakatlarda davlat tomonidan rag'batlantiruvchi mexanizmlar, soliq imtiyozlari va innovatsion ekotexnologiyalarni qo'llab-quvvatlash muhim rol o'ynagan. MDH davlatlari olimlari tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda esa sirkulyar iqtisodiyotga o'tish jarayonida institutsional muhit, iqtisodiy rag'batlar hamda normativ-huquqiy bazaning ahamiyati alohida qayd etiladi. Tadqiqotchilar iqtisodiyotni modernizatsiya qilish jarayonida resurs tejamkor ishlab chiqarishni rivojlantirish ustuvor yo'nalishlardan biri ekanligini asoslaydi.

Mahalliy ilmiy tadqiqotlarda sirkulyar iqtisodiyot masalalari asosan chiqindilarni qayta ishlash, ekologik boshqaruv va yashil iqtisodiyot tamoyillarini joriy etish nuqtayi nazaridan o'rganilgan. O'zbekiston sharoitida resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish, sanoat chiqindilarini qayta ishlash darajasini ko'tarish va ekologik innovatsiyalarni kengaytirish zarurati ilmiy ishlarda qayd etilgan. Shu bilan birga, mavjud adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, xorijiy tajribalarni bevosita ko'chirish emas, balki ularni mamlakatning iqtisodiy tuzilmasi, resurs salohiyati va institutsional rivojlanish darajasini hisobga olgan holda moslashtirish muhim hisoblanadi. Aynan shu jihat mazkur tadqiqotning dolzarbligini belgilaydi [4].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda sirkulyar iqtisodiyotni rivojlantirishning nazariy asoslarini o'rganish, ilg'or xorijiy tajribalarni tahlil qilish hamda ularni O'zbekiston iqtisodiy sharoitiga moslashtirish imkoniyatlarini aniqlash maqsadida kompleks metodologik yondashuv qo'llanildi.



Tadqiqotning metodologik asosini tizimli yondashuv, institutsional tahlil hamda barqaror rivojlanish konsepsiyasi tashkil etadi. Tadqiqot jarayonida iqtisodiy tizimlarni yopiq resurs aylanishi tamoyili asosida baholashga imkon beruvchi sirkulyar iqtisodiyot nazariyalari va zamonaviy ilmiy qarashlar asos qilib olindi.

Ilmiy tadqiqot davomida quyidagi usullardan foydalanildi:

Birinchiidan, ilmiy abstraksiya va mantiqiy umumlashtirish usuli orqali sirkulyar iqtisodiyotning nazariy mohiyati, asosiy tamoyillari hamda rivojlanish bosqichlari o'rganildi.

Ikkinchiidan, qiyosiy tahlil usuli yordamida Yevropa Ittifoqi davlatlari, Yaponiya, Janubiy Koreya va Xitoyning sirkulyar iqtisodiyot bo'yicha tajribalari o'zaro taqqoslandi hamda ularning samarali mexanizmlari aniqlashtirildi.

Uchinchiidan, statistik tahlil usuli orqali resurslardan foydalanish samaradorligi, chiqindilarni qayta ishlash darajasi, ekologik ko'rsatkichlar va iqtisodiy samaradorlik indikatorlari baholandi.

To'rtinchiidan, indikatorlar asosida baholash usuli qo'llanilib, sirkulyar iqtisodiyot rivojlanish darajasini aniqlovchi kompleks ko'rsatkichlar tizimi shakllantirildi. Bunda resurs samaradorligi, qayta ishlash ulushi, innovatsion faollik va ekologik barqarorlik mezonlari asosiy indikatorlar sifatida tanlandi.

Beshinchiidan, ekspert baholash usuli orqali xorijiy tajribalarni O'zbekiston sharoitida qo'llash imkoniyatlari hamda institutsional cheklovlar aniqlab olindi.

Tadqiqotning axborot bazasini xalqaro tashkilotlar hisobotlari, xorijiy ilmiy maqolalar, milliy statistik ma'lumotlar, davlat strategik dasturlari hamda ekologik va iqtisodiy rivojlanish ko'rsatkichlari tashkil etdi.

Mazkur metodologik yondashuv sirkulyar iqtisodiyotni rivojlantirish bo'yicha ilmiy asoslangan xulosalar chiqarish, xorijiy tajribalarni milliy iqtisodiyotga moslashtirish hamda amaliy tavsiyalar ishlab chiqish imkonini berdi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot jarayonida sirkulyar iqtisodiyotni rivojlantirish darajasini baholash uchun tanlangan indikatorlar asosida O'zbekiston va bir qator xorijiy davlatlar bo'yicha ma'lumotlar tahlil qilindi. Tahlil natijalari sirkulyar iqtisodiyotning asosiy komponentlari — resurslardan samarali foydalanish, chiqindilarni qayta ishlash darajasi, yashil texnologiyalarni joriy etish hamda ekologik samaradorlik o'rtasida sezilarli farqlar mavjudligini ko'rsatdi.

O'tkazilgan hisob-kitoblar va normallashtirilgan ko'rsatkichlar asosida sirkulyar iqtisodiyot indeksi shakllantirildi. Natijalar shuni ko'rsatadiki, rivojlangan davlatlarda ushbu indeks qiymati yuqori bo'lib, bu ularning iqtisodiy tizimida yopiq siklli ishlab chiqarish va qayta ishlash infratuzilmasi yaxshi yo'lga qo'yilganini bildiradi. Aksincha, rivojlanayotgan mamlakatlarda, jumladan, O'zbekistonda ham indeksning o'rtacha darajada ekanligi kuzatildi.

Tahlil davomida quyidagi asosiy tendensiyalar aniqlandi:

- chiqindilarni qayta ishlash darajasi yuqori bo'lgan davlatlarda resurs samaradorligi ham yuqori;
- sanoat tarmoqlarida yashil texnologiyalar ulushi ortgani sayin ekologik bosim kamaygan;
- institutsional qo'llab-quvvatlash (qonunchilik va strategiyalar) sirkulyariqtisodiyot rivojlanishida muhim rol o'ynaydi;

- aholining ekologik madaniyati va iste'mol modeli ham natijalarga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

O'zbekiston bo'yicha olingan natijalar shuni ko'rsatadiki, sirkulyar iqtisodiyot elementlari bosqichma-bosqich joriy etilayotgan bo'lib, qayta ishlash infratuzilmasi va innovatsion texnologiyalarni yanada rivojlantirish uchun keng imkoniyatlar mavjud. Shu bilan birga, so'nggi yillarda ekologik siyosatni takomillashtirish va yashil iqtisodiyotga o'tish bo'yicha amalga oshirilayotgan islohotlar ijobiy tendensiyani shakllantirmoqda.

Umuman olganda, tahlil natijalari sirkulyar iqtisodiyotni rivojlantirishda kompleks yondashuv zarurligini ko'rsatadi. Ya'ni, iqtisodiy, institutsional va texnologik omillar uyg'unligi ta'minlangandagina yuqori samaradorlikka erishish mumkin [5].

Tadqiqotda sirkulyar iqtisodiyot darajasini baholash uchun normallashtirilgan indikatorlar asosida integral indeks ishlab chiqildi. Ushbu indeks quyidagi asosiy komponentlarni o'z ichiga oldi: chiqindilarni qayta ishlash darajasi (H), innovatsion texnologiyalar ulushi (I), ekologik barqarorlik (T), resurs samaradorligi (J), chiqindilarni kamaytirish ko'rsatkichi (Ch) va institutsional qo'llab-quvvatlash (Qn).

Integral indeks quyidagi formula asosida hisoblandi:


$$SIR = (H + I + T + J + Ch + Qn) / 6$$

Normallashtirish 0–1 oralig'ida amalga oshirildi, bu esa davlatlar o'rtasida taqqoslash imkonini berdi. Quyidagi jadval sirkulyar iqtisodiyot indeksi bo'yicha shartli taqsimotni ko'rsatadi (1-jadval):

1-jadval. Sirkulyar iqtisodiyot indeksi (SIR) asosida davlatlar rivojlanish darajasining taqsimoti¹

Davlatlar guruhi	O'rtacha SIR qiymati	Rivojlanish darajasi
Rivojlangan davlatlar	0.70 – 0.85	Yuqori
O'rta daromadli davlatlar	0.45 – 0.69	O'rtacha
Rivojlanayotgan davlatlar	0.25 – 0.44	Past–o'rtacha
O'zbekiston	0.40 – 0.50	O'rtacha

Tahlil shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston ko'rsatkichlari o'rta darajaga yaqin bo'lib, rivojlangan iqtisodiyotlarga nisbatan hali farq mavjud. So'nggi yillarda indikatorlar dinamikasi quyidagi tendensiyalarni ko'rsatdi (1-rasm):

1-rasm. Sirkulyar iqtisodiyotni baholash indikatorlarining dinamikasi²

Bu tendensiyalar O'zbekistonda sirkulyar iqtisodiyotga o'tish jarayoni boshlanganini, biroq hali to'liq tizimli shaklga kelmaganini bildiradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'tkazilgan tadqiqot natijalari sirkulyar iqtisodiyotning zamonaviy iqtisodiy tizimlarda barqaror rivojlanishni ta'minlashdagi o'rni tobora ortib borayotganini ko'rsatdi. Tahlillar shuni tasdiqladiki, sirkulyar iqtisodiyot modeli resurslardan samarali foydalanish, chiqindilarni kamaytirish hamda qayta ishlash jarayonlarini kengaytirish orqali ekologik va iqtisodiy barqarorlikka erishishda muhim mexanizm hisoblanadi. Tadqiqot davomida ishlab chiqilgan integral indeks asosida olib borilgan baholash natijalari rivojlangan davlatlarda sirkulyar iqtisodiyot elementlari yuqori darajada shakllanganini, rivojlanayotgan davlatlarda esa bu jarayon bosqichma-bosqich tizimli rivojlanish yo'lida ekanligini ko'rsatdi. O'zbekiston misolida esa sirkulyar iqtisodiyotga o'tish jarayoni boshlangan bo'lib, ayrim sohalarda ijobiy o'sish tendensiyalari kuzatilmoqda. Xususan, chiqindilarni qayta ishlash tizimi va ekologik siyosatni takomillashtirish bo'yicha amalga oshirilayotgan islohotlar muhim natijalar bermoqda.

Shu bilan birga, tadqiqot natijalari sirkulyar iqtisodiyotning to'liq rivojlanishi uchun keng imkoniyatlar mavjudligini ham ko'rsatdi. Ular qatoriga innovatsion texnologiyalarni yanada keng joriy etish imkoniyati, qayta ishlash infratuzilmasini rivojlantirish salohiyati hamda institutsional mexanizmlarni takomillashtirish istiqbollari kiradi. Umuman olganda, sirkulyar iqtisodiyot modelini samarali rivojlantirish uchun iqtisodiy, texnologik va institutsional omillar uyg'unligini ta'minlash muhim ahamiyat kasb etadi. O'zbekiston sharoitida esa ushbu yo'nalishda innovatsiyalarni keng joriy etish, yashil texnologiyalarni rivojlantirish hamda ekologik madaniyatni oshirish ustuvor vazifalar sifatida belgilanishi lozim. Tadqiqot natijalari sirkulyar iqtisodiyotga o'tish jarayoni bosqichma-bosqich izchil amalga oshirilishini va bu jarayon uzoq muddatli strategik yondashuv asosida barqaror natijalar berishini ko'rsatdi.

1 Manba: muallif ishlanmasi

2 Manba: muallif ishlanmasi

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 04.01.2024 yildagi "Chiqindilarni boshqarish tizimini takomillashtirish va ularning ekologik vaziyatga salbiy ta'sirini kamaytirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-5-son Farmoni // URL: <https://lex.uz/ru/doc-passport/-6732832>
2. Nurislom To'xliyev "Sirkulyar va yashil iqtisodiyot" "Jadid" gazetasining 2024-yil 22-noyabrdagi 48-soni.
3. F.K.Saidova "O'zbekistonda bioiqtisodiyot va sirkulyar iqtisodiyotni rivojlantirishning ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati"// "Raqamli iqtisodiyot" ilmiy-elektron jurnali | 10-son b.1021-1029, 2024.
4. S.N. Xashimova "Sirkulyar iqtisodiyot barqaror rivojlanish mexanizmi sifatida"// Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot jurnali, 2024-yil, dekabr. № 12-son.
5. E.Narzullayev "Ekologik ijtimoiy tadbirkorlik sohasining paydo bo'lishi va O'zbekistonda rivojlantirish holati tahlili"// Agroilm jurnali MAXSUS SON 2, 2024, b.154-157.
6. E.Narzullayev "Qattiq maishiy chiqindilarni boshqarish strategiyasini rivojlantirish" monografiya, Namangan-2026.
7. D.Sultonova "Sirkulyar iqtisodiyot ekologik muammolarni hal qiladimi?" O'zTFQM axboroti, 2022.
8. A.Qarshiyev "O'zbekistonda 8 ta chiqindi yoqish zavodi qurilishi rejalashtirilmoqda", 2024-yil.
9. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlari

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Abdurahmon Qurbonov

2026. № 4

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100